

ISLOM MOLİYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH

Qilichov Bobir Xo'jaqul o'g'li

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Menejment" kafedrasida assistent-stajyori,
telefon: +99891-544-33-55 e-mail: samarkand030@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqola bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan va turli iqtisodiy inqirozlarga qaramasdan barqaror o'sish suratlari ega bo'lgan islom moliyasiga bag'ishlanadi. Maqolada islom bank ishining pul-kredit siyosatini tartibga solishga qaratilgan mexanizmlari haqida so'z yuritiladi. O'zbekistonda Islomiy bank xizmatlarini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bir paytda, iqtisodiyotning eng muhim unsurlaridan biri bo'lgan pul-kredit siyosatini boshqarishda foydalaniladigan islomiy mexanizmlarni o'rganish va anglash alohida dolzarblik kasb etadi. Shu sababli, maqolada islom bank xizmatlarini yo'lga qo'ygan ba'zi mamlakatlar tajribalari hamda bir qancha tadqiqotchilarning mavjud muammolar to'g'risida bildirgan fikrlari o'rganib chiqilgan. Bu manbalarda ta'kidlangan muammolarni yechishga qaratilgan hatti-harakatlar majmui va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Islom moliyasi, Islom banking, Islom bank ishi, pul-kredit siyosati, banklararo munosabatlar, Musharaka (Birlashuv), Murabaha (Mudlo), Ijara (Ijara), Mudaraba (Sahibkor-Mudarib Munosabati), Salam (Avans To'lov Shartnoma).*

KIRISH

O'zbekiston hukumatining chet el investitsiyalarini faol jalb etish orqali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan siyosati yangi moliyaviy manbalarni topish va ular bilan investitsion hamkorlikni kuchaytirishni bugunning dolzarb vazifalaridan biriga aylantirdi. Xususan, shunday manbalardan biri g'arb mamlakatlariga xos bo'lgan ananaviy moliya va bank tizimiga muqobil tanlov sifatida maydonga chiqib kelayotgan Islom moliyasi va bank tizimidir. Zero, bir tomondan yalpi aktivlari 2.5 trillion AQSH dollariga¹⁵ teng islom banklari 2008 yilda yuz bergan moliyaviy inqirozlardan diyarli talofatsiz o'tgan bank tizimi sifatida butun dunyo e'tirofiga sazovor bo'lgani xolda ulkan investitsion salohiyat namoyon etayotgan bo'lsa, boshqa tomondan xalqimizning islom bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p asrlik tarixi va madaniyati bu mavzuning kun tartibiga qo'yilishini tabiiy bir xolatga aylantiradi.

Shunday ekan, shariat qoidalariga muvofiq faoliyat yurituvchi Islom bank tizimi yuzasidan "Islom banklari faoliyati va bank tizimi qanday yo'lga qo'yilgan?", "pul-kredit siyosatida qanday mexanizmlardan foydalanadi?", "banklararo munosabatlar qanday tashkil etiladi?" kabi bir qancha o'rinli savollar paydo bo'ladi va ularni tadqiq etish zarurati tug'iladi. Ushbu maqolada pul-kredit siyosati instrumentlari haqida so'z yuritamiz.

¹⁵ Xasanov X.V (Islom Taraqqiyot Bankining O'zbekistondagi vakili)

Islomiy banklar pul-kredit siyosatini boshqarishda quyidagi asosiy islomiy mexanizmlardan foydalanishadi:

1. Musharaka (Birlashuv). Bu usulda bank mijoz bilan moliyaviy tashkilot o'rtasida tijoratni birlashtiradi. Pulni birlashtirish va daromad olish jarayonida risk va foyda o'rtasida bo'lgan munosabat asosiydir. Musharaka bank va mijoz o'rtasida hamkorlikni o'z ichiga oladi va qonun tomonidan tasdiqlangan vaqt davomida foydalaniladi.

2. Murabaha (Mudlo). Bu usulda bank, mijozga moliyaviy mahsulotni xarid qilish va uni mijozga qo'shimcha narxga sotish orqali muddatli to'lov sharti bilan sotadi. Bu usul muddati tugaganidan so'ng moliya banki mahsulotni mijozga o'zgartirilgan narxda sotish orqali sotib olishadi.

3. Ijara (Ijara): Bu usulda bank, mijoz tomonidan talab qilingan aktivalarni xarid qilib, ularni mijozga muddatli ijaraga beradi. Mijoz, ularni muddat tugaganidan so'ng bankka qaytaradi. Bu jarayon hisob-kitoblarga qarab mijozga mol qabul qilish imkonini beradi, ammo daromad olish emas.

4. Mudaraba (Sahibkor-Mudarib Munosabati). Bu usulda bank moliyaviy resurslarni sifatli investitsiyalarga olib keladi va daromad taqsimlaydi. Bank sahibkor sifatida xizmat ko'rsatadi va foyda va xavfsizlikni ta'minlaydi, u erkinlikka ega bo'ladi. Mudarib esa moliyaviy operatsiyalarni boshqarish va ularni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

5. Salam (Avans To'lov Shartnoma). Bu usulda bank mijozga kelajakdagi mahsulotni avans to'lov asosida sotib olish imkonini beradi. Mijoz avans to'lovni bajaradi va kelajakdagi mahsulotni muddati kelganda sotib oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizdagi bank tizimi uchun Islom bank ishi nisbatan yangi hisoblanadi va yetarli darajada o'rganib chiqilmagan. Tabiiyki o'zbek tilida yozilgan Islom moliyasi va bank tizimiga oid kitoblar barmoq bilan sanarli bo'lib, asosan chet tilidan tarjima qilingan. Xususan, S.Xorun, V.Nursofizaning "Islomiy moliyalar va bank tizimi. Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti" kitobi, R.V.Abdullayev, S.M.Dusanovlarning "Islom iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlar" kitobi shular jumlasidandir.

Ishonchli manbalarning katta qismi ingliz va arab tillarida bo'lib, ba'zi yevropa tillarida ham bir qancha kitoblar chop etilgan. Olimlardan Dr. Muhammad Taqi Usmani, Muhammad Akram Khan, Dr. Rifaat Ahmed Abdel Karim va boshqalar Islom moliyasini ingliz tilida batafsil yoritib berishga katta hissa qo'shgan bo'lishsa, fransuz tilida Dr. Tarik Abou Nour, Lévy Aldo, Mahmoud El-Gamal, Kaouther Jouaber-Snoussi kabi olimlarning ishlari alohida diqqatga sazovor hamda Paris EUROPLACE qo'mitasi orqali Islom moliyasini Yevropada ommalashtirishga hissa qo'shmoqdlar. Rus tilida chop etilgan maqola va kitoblar bir oz qeyinroq, asosan ingliz tilidagi manbalarga tayanib yaratilgan bo'lib, bu ishda R.I.Bekkin, A.Y.Juravlev, YE.L.Shuremov, M.A.Rumyansev, YE.A.Baydaulet va boshqalar alohida hissa qo'shganlar.

Yurtimizdagi eng so'nggi tadqiqotlardan biri 2021 yil fevral oida Tursunov Anvar

Sultonovichning “Tijorat banklarida islom moliyaviy xizmatlarini rivojlantirish” mavzusida falsafa doktorlik dissertatsiyasini himoyasi OAK tomonidan e’lon qilingan. Shunga qaramay, mualliflarning aksariyati moliviy va chakana bank xizmatlarini atroflicha yoritishsada, pul-kredit siyosati instrumentlarini va ularni boshqarish mavzusiga kamroq to’xtalishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola manbaalarni tahlil qilishda analitik va sintetik usullardan foydalanilgan. Turli tadqiqotchilarning qarashlari tizimli va umumlashtirish uslublari vositasida o’rganilib sohaga oid muammolar aniqlangan. Shuningdek, muallifning shaxsiy kuzatish va mantiqiy fikrlash usullari yordamida bir nechta ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida pul-kredit siyosatini boshqarishda turli mamlakatlarda turlicha mexanizmlar va yondoshuvlar qo’llanilishi aniqlandi.

Monistik yondoshuv asosida ya’ni butun moliyaviy tizimini yoki uning katta qismini islom moliyasi qoidalariga muvofiq tashkil etgan davlatlarda iqtisodiyotdagi pul massalarini boshqarish va likvidlikni tartibga solish uchun shariat qoidalariga mos keluvchi mexanizmlar ishlab chiqishga katta ehtiyoj sezilgan. Ammo dualistik yondoshuvni tanlab, Islomiy bank xizmatlarini maxsus islom banklari yoki ananaviy tijorat banklaridagi islom darchalari orqali tashkil etish yo’lidan ketgan mamlakatlarda esa pul-kredit siyosati markaziy banklar tomonidan ananaviy shaklda tartibga solinib kelinmoqda. Bunday xolatda markaziy banklar Islom shariat qoidalariga amal qilish majburiyatini olmaydi va islomiy bank xizmatlari ko’rsatuvchi banklar uchun banklararo munosabatlar juda cheklangan.

Abdul Avval Sarker¹⁶ Islom shariatiga muvofiq boshqariluvchi pul-kredit mexanizmlari Malayziya, Sudan, Eron va Baxreyn kabi mamlakatlarda bir muncha taraqqiy etganligini ta’kidlaydi. Bu mamlakatlarning har biri o’z qonunchiligidan kelib chiqib, shariat ruxsat etgan islomiy pul-kredit instrumentlaridan foydalanadi. Hozirgi kunda Islomiy pul-kredit siyosati va banklararo munosabatlarni tartibga soluvi 15da ortiq instrumentlar ishlab chiqilgan bo’lib, Malayziyada 6 ta, Sudanda 4 ta, Bahreynda 3 ta hamda Eronda 2 ta instrumentdan keng foydalanib kelinadi.

Bu instrumentlar iqtisodiyotdagi pul massasini va banklardagi likvidlikni boshqarish hamda pul bozoridagi talab va taklifni muvofiqlashtirib turishga qaratilgan. Ananaviy bank tizimidagi kabi, islomiy bank tizimida ham, davlat yoki markaziy bank Islomiy tijorat banklariga qisqa muddatli likvidlikni ta’minlovchi doimiy kredit liniyalarini taqdim etish orqali pul-kredit siyosatini olib boradi. Xususan, markaziy bankning so’nggi qarz beruvchi sifatida bunday kredit liniyalari taqdim etishi Islomiy pul bozorini rivojlantirishda juda muhim o’rin tutadi. Shu bilan birga, markaziy bank tomonidan Islomiy tijorat banklaridagi likvidlikni ta’minlashga qaratilgan depozit-passivlar bo’yicha rezerv mablag’larning majburiy darajasi ham belgilab

¹⁶ Abdul Awwal Sarker (Bangladesh Banki Ilmiy tadqiqotlar departamenti bosh direktori)

qo'yilgan.

Ushbu kredit liniyalari Islomiy bank tizimiga xos bo'lgan shartnoma turlari (murobaha, mudoraba va mushoraka) va qimmatli qog'ozlar (sukuk) vositasida amalga oshiriladi.

Malayziya islomiy bank tizimi boshqa davlatlarga qaraganda ancha ilg'orlab ketgani bilan alohida ajralib turadi. Bu davlatda ko'proq bir necha ko'rinishdagi Murobaha bitimlari (sukuk, sukuk-ijara va banknotalar emissiya qilish) hamda Vadia sertifikatlarini sekyuritizatsiya usulida vositachilar yordamida muomalaga kirish amaliyoti qo'llanadi. Shuningdek, markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotish va qaytarib sotib olish bo'yicha kelishuv (REPO ning muqobili) yoki mablag'larni tekinga vaqtinchalik saqlab berish kabi vositalari ham taklif qilinadi. Bundan tashqari iqtisodiyotdagi bo'sh mablag'larni jalb qilish uchun hukumat tomonidan chiqarilgan davlatning investitsiya qimmatli qog'ozlaridan ham kelishib olinadigan qarz instrumentining bir shakli sifatida foydalaniladi. Ba'zi xollarda esa markaziy bank bazaviy maxsulotga bog'langan Murobaha bitimi doirasida depozit liniyalar taqdim etishi mumkin.

Sudan bank tizimi ko'proq Mushoraka bitimlariga murojaat qiladi. Pul-kredit siyosatini tartibga solishda Markaziy bank Mushoraka sertifikati, Davlat Mushoraka sertifikati, Markaziy Bank ijara sertifikati hamda Davlat investitsiya sertifikatlarini (Ijara, Salam, Mudoraba va Istisna bitimlariga asoslangan) emissiya qilish vositalarini qo'llaydi.

Bahrayn bank tizimining banklararo munosabatlarida asosan sukuklar (Ijara va Al-salam) qo'llanadi.

Eron bank tizimida esa Mushoraka bitimiga o'xshash markaziy bank va davlat tomonidan chiqariladigan sheriklikka asoslangan qimmatli qog'ozlar amal qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Islomiy bank tizimida pul-kredit siyosatini tartibga solish uchun mo'ljallangan instrumentlar hozirda ancha taraqqiy etgan bo'lib, borgan sari zamonaviy iqtisodga moslashib, rivojlanib bormoqda. Bu esa, islomiy iqtisod va huquq olimlarining sa'yi-harakatlari natijasi o'laroq, islomiy bank tizimi ham ananaviy bank tizimi bilan bir qatorda kelajakda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qodir bo'lgan to'laqonli bir tizim sifatida ishlay olishidan darak beradi.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasi va Islom Taraqqiyot Banki (ITB) o'rtasidagi hamkorlik, islom moliyaviy xizmatlarini mamlakatimizda rivojlantirishga qaratilgan strategik tadbirlarning bir qismini ifodalaydi. Bu hamkorlik, mamlakatimizda islomiy bank tizimini rivojlantirish, islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish, va islomiy bank tizimini kengaytirishda katta o'rin o'rnashgan.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 29 dekabr 2020 yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasida islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish zaruriyatini ko'rsatishi, islomiy moliyaviy xizmatlar sohasida davlatimizning qat'iy qarorini ifodalaydi. Bu, islomiy bank tizimini rivojlantirish va moliyaviy sohasidagi amaliyotlarni koordinatsiyalashda katta rol o'ynaydi.

Bir nechta tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini islom darchalari orqali taqdim qilish amaliyoti ustida jiddiy ishlar olib borilmoqda. Bu amaliyotlar, islomiy banklar va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligini va islomiy moliyaviy xizmatlarni fuqarolarga taqdim etishda yangi imkoniyatlar yaratishni ta'minlaydi.

Bu hamkorlikning jadallashtirilishi, islomiy moliyaviy xizmatlarni mamlakatimizning moliyaviy tizimida yanada rivojlantirish va ko'plab insonlarga ulashishga imkoniyat yaratadi. Islomiy banklar va tijorat banklari o'rtasidagi shu ko'p yillik hamkorlik, mamlakatimizdagi iqtisodiyotni yanada barqaror va barqaror qilishga qaratilgan samarali va samarali bir yo'l hisoblanadi. Aynan, Islom moliyasi prinsiplariga muvofiq mahsulotlar va instrumentlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik va moliya bozoridagi raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan samaradorliklarni misollar orqali ko'rsatish mumkin. Bu, mamlakatimizda ham keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi yondoshuvlar va texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mamlakatimizda Islom moliyasi prinsiplariga muvofiq pul-kredit siyosatini tartibga solish orqali moliyaviy sohaning rivojlantirilishi, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va bo'sh mablag'larni jalb qilishga yordam berish uchun juda muhimdir. Bu tavsiyalarni amalga oshirish, mamlakatimizning moliyaviy sohasining yangi va sifatli yondoshmalar bilan rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 29 dekabr 2020 yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasi.
2. Xasanov X.V. Ahloqiy (islomiy) moliyalashtirish tizimi – innovatsion moliyalashtirish vastiasi sifatida (O'zbekiston va MDH misolida)// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2017 yil.
3. Dr. Muhammad Taqi Usmani, An Introduction to Islamic Finance// Published by Ethica Institute of Islamic Finance, USA, 2019.
4. Edited by Asma Siddiqi, Anthology of islamic banking// Published by Institute of Islamic Banking and Insurance, London, 2000.
5. Muazzam Ali and colleagues of authors, Development of an accounting system for ISLAMIC BANKING// Published by The Institute of Islamic Banking and Insurance, London, 1994.
6. Ahmed MD. Abdul Awwal Sarker. Une Évaluation des Instruments de Politique Monétaire Islamique Introduits dans Certains Pays Membres de l'OCI Sélectionnés// « Etudes en Economie Islamique », Vol.8, No.2, 2016 (69-129).
7. HATMI ZEINEB. La Banque Islamique comme réponse à l'instabilité de l'économie de crédit// thèse doctorale, Ecole des Hautes Etudes en Sciences Sociales de Paris et Institut Supérieur de Gestion de Tunis.

8. S. Drissi, Pr. Kh. Angade. La conduite de la politique monétaire dans un système financier islamique // *Researches and Applications in Islamic Finance*, Volume 2, Numéro 1, février 2018
9. Rakhmatov B.B. Ekonomicheskaya effektivnost snizheniya materialoyomkosti produktsii (na primere KPB Uzbekistana), dis. ... candy. economy Nauk: 08.00.05.— Moscow, 1990.—120 p.
10. B.B. Rakhmatov Material consumption as an important factor in the management of the regional economy, *International Journal of Engineering Mathematics: Theory and Application (Online)* 1687-6156 <http://iejemta.com/> VOLUME 5 ISSUE 1,100-112
11. Rakhmatov B.B. RESOURCE SAVING AS A MULTIPLE PROBLEM, *International journal of trends in business administration* ISSN: 2349-4212 2023 ear Volume 13 issue 1 Universal impact factor 7.828,3-10
12. Odilovich O. A., Umirzokovich T. F., Turdibaevich K. R. Increasing the Efficiency of Higher Education Personnel Training Management in Uzbekistan // *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*. – 2021. – С. 9251-9264.
13. Турсунов Ф. Цифровая трансформация в экономике // *Общество и инновации*. – 2021. – Т. 2. – №. 3/С. – С. 133-137.
14. Tursunov F. U., Azizkulov B. K. Rriorities of tourism and ways to increase their attractiveness // *Journal of innovations in economy*. – 2021. – Т. 4. – №. 5. – С. 4-10.
15. Tursunov F. U. Digital economy and globalization: the importance of digital entrepreneurship development // *Journal of innovations in economy*. – 2020. – Т. 6. – №. 3. – С. 17-20.
16. Tursunov F. Digital transformation in the economy // *Society and Innovations*. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
17. TURSUNOV F. Small Business and Private Entrepreneurship: Ways of Support and Effective Organization. – 2021.
18. Tursunov F. U., Haydarova S. A. Sifat menejmentida zamonaviy yondashuvlar // *Scientific Impulse*. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 536-537.
19. Турсунов Ф. У., Шарипова М. С. Юқори технологияли корхоналарнинг инновацион ва инвестиция фаолиятининг иқтисодий самарадорлиги // *Journal of marketing, business and management*. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 30-32.
20. Umirzakovich T. F. KORXONADA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION BOSHQARUV TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH // *Journal of marketing, business and management*. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 96-99.
21. Tursunov F. U., Baxriddinov S. H. R. OLIY TA'LIM MUASSASASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISHDA MUAMMOLAR // *Евразийский журнал академических исследований*. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 96-100.
22. Tursunov F. U. IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN SERVICE FIELD // *Экономика и социум*. – 2022. – №. 8 (99). – С. 77-79.

23. Турсунов Ф. У., Асророва Ф. А. СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 5-10.

24. Rakhmatov B. B. MATERIAL CONSUMPTION AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE MANAGEMENT OF THE REGIONAL ECONOMY //International Journal of Engineering Mathematics (Online). – 2023. – Т. 5. – №. 1.

25. Рахматов Б. Б. ЎЗБЕКИСТОНДА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР АСОСИДА КЛАСТЕРЛАШТИРИШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 28. – С. 150-153.

26. Rakhmatov B. B. METHODOLOGICAL APPROACHES TO POVERTY AND ITS ANALYSIS //British View. – 2022. – Т. 7. – №. 2.

27. Anvarjon F., Bo'riboevich R. B. O'ZBEKISTON SHAROITIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI //ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – Т. 1. – С. 109-110.

28. Rakhmatov B. B. et al. Improving Investment Services in the Digital Economy //JournalNX. – С. 117-120. 24. Rakhmatov B. B. et al. Investment in the Territorial Economy is an Important Condition for Providing Public Employment //JournalNX. – С. 112-116.

29. Tangirov A.E. The essence of enterprise management and its organization in the conditions of economic modernization. International Journal of Economy and Innovation | Volume: 46 | 2024 <https://gospodarkainnowacje.pl>

30. Ugli K. B. K. Analysis of Investment Activity of Insurers Operating in the Insurance Market //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 77-84.

31. Karshievna U. D., Khujakulovich K. B. ASSESSMENT OF THE SYNERGY EFFECT IN TOURISM //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2022. – Т. 4. – №. 02. – С. 19-25.

32. Qilichov B. X. et al. Development of the Insurance Market in the Conditions of Innovative Economy //Academic Journal of Digital Economics and Stability.

33. Тангиров А. Э. ЧЎЛ-ЯЙЛОВ ЧОРВАЧИЛИГИДА КЛАСТЕР БОШҚАРУВ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. Conference. – С. 336-341.

34. Tangirov A. ABDURAHMAN JAMI. WHY" ВАНОРИСТАН"? //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В7. – С. 524-526.

35. Egamovich T. A. DISPARITATION OF PRICES AND ITS SOLUTION //International journal of trends in business administration. – 2022. – Т. 12. – №. 1.

36. UGLI K. B. K. ANALYSIS OF INSURANCE ORGANIZATIONS BY INSURANCE CLASSES //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 46. – С. 181-197.

37. Абдуманнонов Б. М. ИННОВАЦИОННОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В МОДЕРНИЗАЦИИ БАЗОВЫХ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 35-38.

38. Maxsudovich A. B. YER MUNOSABATLARI SOHASIDA KORRUPSION HOLATLARNI BARTARAF ETISH YO 'LLARI //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 119-124.

39. Maxsudovich A. B. RESPUBLIKAMIZDA KADRLAR TAYYORLASH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN STRATEGIYA //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 125-128.

40. Maxsudovich A. B. RESPUBLIKAMIZ QURILISH TARMOG'IDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 90-95.

41. Maxsudovich A. B., Sheraliyevich Y. S. MASOFADAN BANK XIZMATLARI KO 'RSATISH MASALALARI //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 11-15.

42. Maxsudovich A. B. QURILISH TASHKIOTLARINING INSON RESURSLARINI BOQSHARISH SALOHİYATINI OSHIRISH //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 135-141.

43. Абдуллаев А., Абдуманнонов Б. ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИОННОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ //Межконф. – 2022.

44. Maxsud A., Maxsudovich A. B., Xamzayevich A. A. QURILISH TASHKIOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH STRATEGIYASI //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 45-52.